

**LIDER SHAXSIDA NUTQNING MUVAFFAQIYATLI CHIQISH SHARTLARI.
NOTIQNING PSIXOLOGIK TASVIRI.
LIDER SHAXSIDA NOTIQLIK QOBILIYATI MUAMMOSINING PSIXOLOGIYA
VA TILSHUNOSLIK TADQIQOTLARIDA ILMIY-NAZARIY TALQINI.**

¹Maxmatqulov Ilyos Sadulla o'g'li

Leytenant, Urgut tuman IIB JXX HPB VYBIG VYMB inspektor-psixologi

²Nazarov Aziz Bektosh o'g'li

Leytenant, Urgut tuman IIB JXX HPB VYBIG VYMB inspektor-psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7479043>

Annotatsiya: Lider o'z kuchiga ishongan, jasur va xarizmatik inson bo'lishi lozim. U, hatto, yosh avlodning himoyachisi bo'la oladi. Odatda, yosh yetakchilar tengdoshlari orasida ajralib turadigan yorqin xislatlarga ega shaxslardir. Ular nafaqat tengdoshlarini o'ziga jalb qila oladi, balki o'zidan katta yoshdagilar bilan ham tez til topisha oladi. Bunday lider tengdoshlaridan ko'ra ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi, bu esa unga muhim masalalarni hal etish imkonini beradi. Bunday vaqtda liderlarimizga notiqlik mahoratini egallaganliklari qo'l keladi. Talabalar jamoasidagi har bir talaba guruhda o'z mavqeiga ega. Bu mavqe rasmiy yoki norasmiy tarzda bo'lishi mumkin. Rasmiy mavqe talabaning mansab, oliy o'quv yurtida tutgan o'rni va uning qaysi kursda o'qishidan kelib chiquvchi vakolatlari bilan ifodalanadi. Har bir talaba o'z kursdoshlari, tengdoshlari bilan o'zaro munosabatda bo'lar ekan, turli omillar ta'sirida bu munosabatlar samimiy tus ola boshlaydi. Hissiyotga asoslangan munosabat ikki ko'rinishda bo'ladi - yoqtirish (simpatiya) va yoqtirmaslik (antipatiya). Shunday talabalar ham borki, ular ma'lum xislatlari bilan oliy o'quv yurti jamoasining ko'pchilik a'zolarini o'ziga jalb qiladi, ular guruhning norasmiy tizimida yuqori mavqe egallaydi. Psixologik talqin bo'yicha jamoaning rasmiy tizimida yuqori mavqeni egallovchi talaba guruh sardori hisoblansa, norasmiy tizimda yuqori mavqeni egallovchi shaxs lider. Lider, odatda, guruhning norasmiy munosabatlar tizimida namoyon bo'ladi. Muayyan shaxsning lider darajasida tan olinishi unga ruhan yaqinlikni, uning o'qish va ish bilan bog'liq qator fazilatlarini yuqori baholashni, ushbu shaxsning guruh manfaatlariga e'tibori kuchliligini anglatadi. Lider - guruhning hamma a'zolari tomonidan tan olingan shaxs lider. Liderning qadriyatlar tizimidagi asosiy jihati guruh manfaatini har narsadan ustun qo'yish, guruh oldiga qo'yilgan vazifani hal etishga sidqidildan kirishib, bu jarayonga jamoani safarbar eta bilishidir. Oliy o'quv yurti jamoasidagi lider, avvalambor, o'qishi, bilimi, muloqotga kirishuvchanligi, notiqlik qobiliyati va ijtimoiy faolligi bilan ajralib turadi. Rahbarlik (guruh sardori bo'lish) - lavozim, lider guruh tomonidan saylangan shaxs. Agar guruh sardori va lider o'rtasidagi

farqqa e'tibor beradigan bo'lsak, guruh sardori talabalarga ega, liderning esa hamfikir tarafdorlari mavjud. Guruh sardori tayinlanib, boshqaruvda hokimiyatga suyansa, lider jamoa a'zolari orasidan saylanib, jamoaga tayanadi. Ba'zi jamoalarda rasmiy sardor va lider alohida shaxs bo'ladi. Bunday jamoa guruh a'zolari sardordan ko'ra norasmiy lider tarafida bo'lishi ko'p uchraydi. Bugungi kunda zamonaviy liderlar kamayib boroyotganligi hammamizga ma'lum. Buning asosiy sababi ularda notiqlik qobiliyatining yetishmasligi, shuning uchun yosh zamonaviy liderlarni yetkazib chiqarish dolzarblik kasb etmoqda.

Tayanch so'z va iboralar: Ta'sirchan nutq, o'zini tutish, etiket, og'zaki, yozma, ovoz, artikulyatsiya, diksiya, nafas, og'zaki nutq texnikasi, yozma nutq texnikasi, notiqning ovozi, yaxshi matn, tinglovchilar bilan o'zaro munosabatlar (aloqa).

Zamonaviy axborot dunyosida yoshlar juda ko'p muammolarga duch kelishmoqda. Avvalo, bu global oqimdan kerakli ma'lumotlarni tanlashdagi qiyinchiliklar. Ikkinchisi, o'z chiqishlari bilan tinglovchilar oldida so'zlay olmaslik, balki ularning qo'rquvi. Ya'ni omma oldida gapirishdan, masxara qilinishdan qo'rqish.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'spirinlar o'z fikrlarini izchil va aniq bayon qilishni, o'z fikrini keng omma oldida bayon qilishni xohlashmaydi, balki bilishmaydi.

Ushbu vaziyatning sabablari axborot texnologiyalaridagi yutuqlardir. Hozirgi zamon yosh yigit-qizlari ko'p vaqtini kompyuterda, ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazadi, o'yinlar o'ynashni yaxshi ko'radi. Atrofdagilar bilan muloqot kam bo'lganligi sababli ularga tinglovchilar oldida biror narsani baland ovozda izhor qilishdan ko'ra yozish osonroq. Ushbu turmush tarzi jismoniy va psixologik holatga salbiy ta'sir qiladi. Ommaviy nutq nutqning og'zaki shakli hisoblanadi. Jonli suhbatning barcha xususiyatlari qanchalik xarakterli bo'lsa, uning tinglovchilarga ta'siri shunchalik kuchliroqdir.

Omma oldida muvaffaqiyatli nutq so'zlash uchun bir nechta ko'nikmalar kerak:

1. Ta'sirchan nutq.
2. Iboralarni qurish va ularni amalga oshirish jarayonida nutq matnida joylashtirish ketma-ketligi bo'yicha mantiqiy ko'nikmalar.
3. Nutq oxirida tinglovchilar savollar bergan taqdirda javob berib, munozarali holat yuzaga kelganda baxslashish qobiliyati.
4. Notiqning nutq paytida ovozini, imo-ishoralarni, mimikasinini boshqara olishi. Bu yerda nutqning mantiqiy komponenti, tinglovchilarga taqdim etilayotgan materialning taqdim etilishining izchilligi ham muhimdir.

5. O'zini tutish, etiket qoidalarini bilishi.

Yuqoridagilarga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

Nutqning ta'sirchan bo'lishi ikki xil omilga bog'liq. Bular nutq sifatlari va texnikasi. Agar so'zlovchi o'zida shularni mujassamlashtirmasa ko'zlangan maqsadga erishmaydi (ya'ni auditoriyani jalb qilolmaydi).

Nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi, sofligi, jo'yaliligi, boyligi, ifodaviyligi, soddaligi, qisqaligi uning sifatlarini tashkil qiladi.

Nutq texnikasi bu nutqning tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda qo'llaniladigan vositalardir. Nutq texnikasi ham ikki xil ko'rinishda bo'ladi:

- 1) Og'zaki;
- 2) Yozma

Og'zaki nutq texnikasi tovush, bo'g'in, so'zlarni, uning shakllarini, talaffuz qilishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi. Nafasdan foydalanish, tovush tembrlarini yaxshilash, tovushlarning past-balandligi unli va undoshlarni talaffuz qilish, ohang shular jumlasidandir.

Nutq ta'sirchan va qiziqarli chiqishi uchun ifodali o'qishni o'zlashtirish lozim. Ifodali o'qishda quyidagi fonetik vositalar alohida ahamiyatga ega (ovoz, artikulyatsiya, diksiya, nafas).

Ovoz kishining bo'g'zida ko'ndalang joylashgan elastik un paychalarini o'pkadan chiqadigan havo kuchi tebranish natijasida hosil bo'ladi va unli tovushlar, sonorlar va jarangli undoshlar paydo bo'ladi. Jarangsiz undoshlar esa havo oqimining til, tanglay, tish, lab to'sig'iga uchrashi natijasida sodir bo'ladi. Og'iz bo'shlig'i, halqum, burun va yondosh bo'shliqlar ovozni kuchaytiradi va o'ziga xos ohang beradi. O'pkadan chiqadigan havo kuchi un paychalarining tebranish holatiga ko'ra ovoz baland yoki past, kuchli yoki kuchsiz bo'ladi.

Artikulyatsiya – muayyan tovushni hosil qilishda nutq organlarining harakat holati va ishtirokidir. Nutq organlarining holati va harakatini yaxshilash uchun uzluksiz mashqlar bajarish kerak.

Diksiya – nutq mahoratining asosini tashkil etuvchi fonetik vosita bo'lib, so'zlarni hamda tovushlarni aniq va ravshan talaffuz qilish me'yorida.

Diksiya notiq va o'qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega: nutq tovushlarini to'g'ri va aniq talaffuz qilish nutqdagi nuqsonlarni bartaraf qilishga asos bo'ladi.

Nafas – o'pkaga kiradigan va undan chiqariladigan havo. Diafragma va qovurg'alararo muskullarning qisqarishi natijasida ko'krak qafasining hajmi kattalashib, o'pka kengayadi. Havo bosimi o'pka ichidagi bosimdan farq qilgani uchun o'pkaga (nafas) kiradi. Ko'krak qafasi kichrayadi va ba'zi muskullarning qisqarishi natijasida nafas chiqariladi. O'pkaga kiradigan havo miqdori nafas

hajmini belgilaydi. Nutqni tinglovchiga yetkazishda nafas olish va uni chiqarishning ahamiyati juda katta.

Notiq va ko'pchilik orasidagi muloqot muayyan mavzu bo'yicha ma'lumot almashish, bilim berish hisoblanadi. Oddiy suhbat jarayonida, olimlarning qayd etishlaricha, ma'lumotning 35% dan kam qismi nutqiy muloqot, 65% dan ziyod qismi esa noverbal, boshqacha qilib aytganda, paralingvistik hodisalar orqali yetkazilarkan. Taniqli psixolog, professor Erkin Sattorov "Omadga erishish psixologiyasi" nomli kitobida shu haqda fikr yuritib, shunday yozadi "nutqiy kanal orqali axborot uzatiladi, noverbal kanal bo'yicha esa muloqot sherigiga bo'lgan munosabat uzatiladi".

Nutqning fonetik vositalari nutqning ifodali, ta'sirli, aniq, jarangdor, kuchli, ravon va tiniq bo'lishini ta'minlaydi. Nutqdagi kamchiliklar nutqning fonetik vositalariga yetarlicha e'tibor bermaslik natijasida kelib chiqadi.

Notiqning ovozida quyidagi sifatlar bo'lishi kerak:

- jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi);
- keng diapazonlik (ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo'lgan darajasi);
- havodorlik (erkin so'zlaganda yaxshi eshitiluvchanlikka ega bo'lishi);
- ixchamlik, harakatchanlik;
- chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo'lish);
- moslashuvchanlik (dinamika, tembr, melodikaning eshitilish sharoitiga moslasha olishi);
- qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik (xalaqit beruvchi shovqinga qarshi tembr va tessituaraning o'zgarib turishi);
- suggestivlik (ovozning hayajonni ifodalash va bu orqali, qanday so'z aytilayotganidan qat'i nazar, tinglovchining xulqiga ta'sir qilish xususiyati).

Nutq texnikasi deyilganda nutqni tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda qo'llaniladigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko'rinishda bo'lganidan uning texnikasini ham ikki xil ko'rsatish mumkin:

1. Og'zaki nutq texnikasi.
2. Yozma nutq texnikasi.

Og'zaki nutq texnikasi tovush, bo'g'in, so'zlarni, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi. Bunga nafasdan foydalanish, tovush tembrlarini yaxshilash, diksiyaga e'tibor berish va undoshlarni talaffuz etish, ohang kabilar kiradi. O'zbek adabiy tili og'zaki nutq texnikasining rivojiga o'zbek madaniyatining atoqli namoyandalari – shoirlar, yozuvchilar, san'atkorlar, aktyorlar katta hissa qo'shdilar.

Nutqning ikki turi bor: og'zaki nutq, yozma nutq.

Og'zaki nutqning ham yozma nutqning ham o'z talablari, imkoniyat doirasi bor.

Og'zaki nutq individual faoliyatdir. Shu boisdan ham fikriy baho va nutqiy uslub, ovoz ifodalari bir-biriga o'xshayvermaydi. Og'zaki nutq so'zlovchining kayfiyati, ruhiyati, temperamentiga, xarakteriga hamda vaziyatiga, nutqiy a'zolarining sog'lom va normal ishlashiga ham bog'liq.

Og'zaki nutq o'ziga xos grammatiktuzilishiga va qurilish tartibiga ega. Unda gap bo'laklarining tushib qolishi, qisqarishi, almashishi, takrorlar, keraksiz unsurlarning bo'lishi kuzatiladi.

Yozma nutqda imloviy va punktuatsion normalar muhim rol o'ynaydi. Yozma nutq - u manba. Xohlagan paytda uni qayta o'qish, tuzatish, boshqa so'z va so'z birikmalari bilan almashtirish mumkin. Yozma nutq namunasidagi maqsadni to'la anglash uchun imlo hamda tinish belgilarining xususiyatlarini notiq yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Davruga chiquvchi notiq nima demoqchi bo'lgan maqsadini to'la bo'lmasa-da, homaki tarhini qog'ozga tushirib rejalashtiradi. Nimadan nimaga o'tish, qancha to'xtalish, nimalarni aytish yoki aytmaslik haqidagi chizgilar notiq so'zlayotgan paytda ham uning ko'z oldida qog'ozdagidek namoyon bo'lib turadi.

Aks holda, nutq me'yori buzilib, vaqt cho'zilib ketishi, auditoriya yaxshi qabul etmasligi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, notiq o'zining fikr tizginini jilovlay olmasdan talmovsirab qolishi mumkin.

So'zlarni joy-joyiga to'g'ri qo'yish va so'z tartiba rioya qilish ham muhim. Notqlikda so'z qo'llash mahorati haqida gap ketganda, notiq nutqida uch bosqich amalga oshiriladi. Bu topish, tanlash, va qo'llashdir. Topish notiqning so'z boyligiga tegishli bo'lsa, tanlash didi, saviyasiga, qo'llash esa uning mahoratiga xosdir. Topish til boylıklaridan, sinonimlardan qanday foydalana olishingizga mezon bo'lsa, tanlash psixologik, etik va estetik normalarga amal qilish zaruratini bildiradi. Qo'llash esa og'zaki yoki yozma ravishda bo'ladi. Siz tinglovchi yoki tomoshabin bilan yuzma-yuz bo'lasiz. Aytilgan so'z otilgan o'qdek keta boshlaydi..

Jamoa oldida nutq so'zlayotgan lider suhbat oxirida bo'lishi mumkin bo'lgan baxs va munozaralarga ham tayyor turishi lozim. Bunda unga mavzuni yaxshi o'zlashtirganlik darajasi qo'l keladi. Sababi kognitiv bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan lider munozarada o'zini yo'qotib qo'ymaydi. Har bir savolga dadil javob bera oladi.

Notiq (nutq so'zlayotgan lider) haqidagi dastlabki taassurot uning tashqi ko'rinishiga qarab shakllanadi. Shunday maqol bor "Kiyimiga qarab kutib olishadi, odobiga qarab kuzatishadi". Ya'ni tinglovchilar liderning nutqni boshlashidan avval uning qiyofasiga qarab ijobiy yoki salbiy xulosaga keladi.

Nutq jarayonida qay darajada etiket qoidalariga rioya qilib, auditoriya bilan do'stona muhit yarata olsa tinglovchilarni mavzuga qiziqтира oladi.

Nutq jarayonida tashqi qiyofa - kiyinish ham alohida ahamiyatga ega. Negaki toza va yaxshi kiyingan notiq o'ziga ishongan bo'ladi va tevarak-atrofdagilarning hurmat bilan qarashlariga sazovor bo'ladi. Aniqroq qilib aytganda notiqning tuflisi tozalanmagan, kiyimi dazmollanmagan (g'ijim), dog' bo'lsa u tinglovchilar e'tiborini torta olmaydi. Nutq so'zlashdan oldidan notiq yaxshi kayfiyatda bo'lishi, yuzi va ko'zida muloyimlik va xursandchilik aks etishi, chehrasi ochiq bo'lishi lozim. Shundagina u tinglovchilarga yoqishi, ularni jalb qila olishi mumkin.

Notiqning yurish-turishi, xatti-harakati, nutq jarayonida muhim ahamiyatga egadir. Chunki har bir xatti-harakat tinglovchilarning ko'z o'ngida bo'ladi va o'z ta'sirini ko'rsatadi. Notiq tana harakatlarining mosligiga, to'g'riligiga alohida e'tibor berishi kerak. Notiq o'z fikrini yurakdan chiqarib tinglovchilarga yetkazsa, uning qo'li va oyog'i bilan bog'liq beo'xshov harakatlar sezilmaydi.

Yaxshilab oldindan tayyorlangan nutq nutqning 90% muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shu sababli notiq mavzu to'g'risida yetarlicha g'oyaga, ma'lumotga ega bo'lsa o'z niyatiga yetadi. Ba'zilar tayyorgarlikka kam vaqt ajratishadi va noqulay ahvolga tushib qolishadi.

Nutqni shakllantirish, yuzaga keltirish uchun puxta tayyorgarlik ko'rish kerak. Xo'sh, tayyorgarlik nimalardan iborat bo'lishi kerak? Qog'ozga so'z va iboralarni yozib qo'yishdanmi? Rosmanasiga tayyorgarlik notiqning o'zidan chiqqan fikrlar asosida namoyon bo'ladi. Eng avvalo, nutq mavzusini chuqur va atroflicha o'ylab ko'rishi lozim. So'ngra mavzuni tanlashi, uni muhokama qilishi, o'z fikrlarini tartibga solishi va tanlashi, o'z matnini ishlab chiqishi va taxt qilishi zarur. Nutqni bir urinishda tayyorlab bo'lmaydi.

So'ngra mavzuga doir ma'lumotlarni yig'ishga to'plashga kirishiladi. Bu reja asosida amalga oshirilishi kerak. Nutq uchun materiallarni imkon qadar ko'proq to'plash lozim. So'ngra ulardan eng keraklisi, mos keladiganlari ajratib olinadi. Olingan ma'lumotlar notiq tomonidan qayta ishlanadi va o'z uslubiga, maqsadiga moslashtiriladi. Ana shundan keyin har bir notiqning o'ziga xos nutqi vujudga keladi.

Har bir notiqning o'ziga xos uslub, bilimi va xislatlari borligi uchun uning nutqi boshqalarnikidan farq qiladi. Shuning uchun ham taniqli notiqning nutqiga ko'r-ko'rona taqlid qilish va takrorlash yaxshi samara bermaydi. Shunga qaramasdan, ulardan foydalangan uslub va imkoniyatlardan ongli hamda ijodiy foydalanish mumkin.

Nutq jarayoni uch bosqichda bo'ladi: nutqning boshlanishi, nutq, xulosa.

Har bir nutqning boshlanishi va yakuni alohida ahamiyatga ega. Notiqning so'nggi so'zlari tinglovchilar yodida saqlanib qoladi. Shuning uchun notiq nutq jarayonida xulosada aytiladigan har bir so'z va iboraga jiddiy e'tibor berishi kerak. Tajribasiz notiqlar nutqini quyidagicha tugatishadi:

“Nutqimni tugatyapman, sizlarga aytmoqchi bo'lgan gaplarim shulardan iborat edi”. “Shu bilan nutqim o'z nihoyasiga yetdi”.

Nutqni shunday tugatish kerakki, uni tinglovchilar bilmay qolsin, unga alohida urg'u berish shart emas.

Nutqning so'ngi so'ziga alohida e'tibor berish va tayyorgarlik ko'rish shart. Notiq so'ngi so'z sifatida aytiladigan yakunga 2-3 variantda tayyorgarlik ko'rib qo'yishi lozim.

Nutqni quyidagi ko'rinishlarda yakunlash maqsadga muvofiq:

1. Nutqdagi asosiy fikrlarni qisqa va lo'nda bayon qilish.
2. Nutqdan kelib chiqib tinglovchilar bilan aloqa o'rnatish.
3. Tinglovchilar sha'niga qisqa maqtov so'zlar aytish.
4. Yumorga boy va kulguli narsani, voqeani aytib tinglovchilarni kuldirish.
5. Mavzuga oid she'riy satrlar bilan yakunlash.
6. Nutqni kulminatsion nuqtaga yetkazib, dolzarb va qiziq narsani aytish bilan yakunlash.

Nutqni shunday yakunlash kerakki, yakunda tinglovchilar uning tamom bo'lganligini sezmay qolsin.

Notiq quyidagilarga qarab o'z chiqishini baholaydi:

- a) tinglovchilar auditoriyasining e'tiborini qay darajada torta olgani;
- b) mavzuga qay darajada kirib borilgani va uni qanchalik tushuntirilgani; bunda berilgan savollarning xarakteri va mohiyatiga tayinlanadi;
- c) mavzuning qaysi jihati tinglovchilarda ko'proq qiziqish uyg'otgani;
- d) tinglovchilardan ayrimlarining yakka holda mavzuning yoritilishi xususidagi shaxsiy fikrlarni eshitishi;
- e) auditoriya psixologiyasini o'rganish.

Agar notiq tinglovchilarning qiziqishini hisobga olsa, uning nutqi samarali va jonli bo'ladi.

Notiq nutqining muvaffaqiyatli bo'lishining oltita sharti mavjud. Mohir notiqgina qiziqarli ma'ruza o'qiydi. Notida bilim, mahorat, qiziqish bo'lishi va muayyan tinglovchilarga bevosita murojaat qila olishi zarur. Notiqning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan shartlar:

1. Minbarga chiqquncha ham, minbarda turganda ham ma'ruza bilan yashash kerak. Notiqlar turlicha bo'lishadi. Ba'zilar ma'ruza o'qishsa, ba'zilar minbarda ma'ruza matni bilan yashab tinglovchilar bilan faol aloqa bog'laydilar va o'zlarini

yo'qotmagan holda auditoriya bilan qo'shib ketadilar. Bular o'qib beruvchilar emas, balki ijodkorlardir. Qiziqarli ma'ruza bu ilmiy mavzudagi mazmunli, zavqli suhbatdir. Bunday ma'ruza odatda uchta bosqichda o'tadi. Birinchi bosqich, material to'planadi va singdiriladi, shaklga solinadi va his etiladi. Ikkinchi bosqich, ma'ruza ichki shaklda va ichki monolog tarzida o'zi uchun o'qiladi, bunda notiqning o'zi ham so'zlovchi ham tinglovchi bo'ladi, o'ziga savol berib o'zi javob qaytaradi. Uchinchi bosqich boshqalar uchun tayyorlangan ma'ruza bo'lib, notiq auditoriyaga kirganida o'zini auditoriyada va auditoriyani o'zida ko'radi va his qiladi. Bunda u oddiy narsada qiziqarli narsani, ma'lum narsada noma'lum narsani, hamma masalalarda hayotiy muhim narsani topa biladi.

2. Materialni shunchaki bilish emas, balki anglagan holda egallab olingan bo'lishi kerak. Egallash bu ma'ruzani qat'iyat va mahorat bilan boshlash hamda asosiy qismni aytish uchun eng yaxshi shaklni topish va ma'ruzani mohirona tugallash demakdir. Muvaffaqiyatli ma'ruza ko'p jihatdan uni qanday boshlashga bog'liq. Muqaddima notiqning auditoriyadagi dastlabki qadamlaridir. Ular qiziqarli bo'lishi lozim. Notiqni muqaddimaga qarab kutib olishadi, mazmun va shaklga qarab kuzatishadi. Muqaddima jangdagi dastlabki atakaning o'zginasidir. Birinchi ataka juda katta ahamiyatga ega, albatta, lekin birinchi hujum jangning taqdirini belgilab bermaganidek, yaxshi boshlangan muqaddimaning o'zi ham butun ma'ruzaning muvaffaqiyatini ta'minlay olmaydi. Kechirim so'rab boshlanadigan muqaddima muvaffaqiyatsiz chiqadi. Muqaddimada ma'ruzaning asosiy fikri bayon qilinsa, u ta'riflab berilsa, shu ruh butun ma'ruza jarayonida bo'rtib tursa, auditoriya mamnun bo'ladi. Ba'zan ma'ruzani hatto iqtibos keltirishdan boshlash mumkin. Ammo ko'chirma o'tkir qurol bo'lsa-da, u hadeb ishlataverilsa, o'tmaslashib qoladi. Ba'zan muqaddimani biror harakterli faktdan boshlab shundan kelib chiqib mavzuni bayon qilish mumkin. Kichkina tanaga kattakon bosh qanchalik yarashmasa, katta muqaddima ham shunchalik kelishmaydi.

3. Nutqni egallash – notiqning nutqi, so'zni tanlay bilishi, jumla tuzishda so'zlardan to'g'ri foydalanishi, obraz yarata olishi, istioradan foydalana olishi, esda qoladigan o'xshatishlar topa bilishi g'oyatda muhim. Mopassan so'zlarning jonini qidirish kerak, degan edi. U so'zlarning jonli bo'lishiga astoydil ishonardi, yozuvchining vazifasi esa shu jonni topib, uni kitobxonga ko'rsatishdan iborat deb hisoblardi. So'zlarning jonini topa olsangiz, so'zlar orqali o'z qalbingizni ham ifodalay olasiz. Emotsionallik – nutqning haroratidir. U yuqori yoki past bo'lishi mumkin. Qanday gapirish, qanday qilib aytish ham muhim. Yomon talaffuz ma'ruza materialini idrok etish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Notiqning yomon talaffuz bilan o'qiyotgan ma'ruzasini tinglaganda varaqlari yirtiq kitobni

o'qiyoganday bo'lasiz. Nutqini o'z o'rnida qo'llanilgan yumor bilan bezay oladigan kishi nutqni yaxshi egallagan bo'ladi. Yumor – nutqning atridir, gulni xidiga qarab ajratish mumkin bo'lganidek yumoriga qarab odamning aqlini belgilash mumkin.

4. Notiqning o'zini tuta bilishi. O'zini yo'qotib qo'ygan (dovdirab qolgan) notiq auditoriyadan ham mahrum bo'ladi. Eng avval, ma'ruza boshida vujudga keladigan hayajonni bosib olishi shart. So'zga chiqish notiqning o'ziga qiziqarli bo'lishi uchun ma'ruza materialini sistematik tarzda yangilab turish, yangi fikrlar, misollar, obrazlar, aforizmlarni kiritib turish zarur. Hech narsa qotib qolmasligi, bir gap hadeb takrorlanavermasligi kerak, aks holda o'zing ham qiziqmay qolasan, tinglovchilar qiziqishi ham yo'qoladi.

5. Auditoriyani boshqarishni o'z qo'lga ola bilish. Notiq bir vaqtning o'zida ham muallif, ham ijrochi, ham dirijor bo'lishi lozim. U muallif sifatida yaxshi, ijrochi sifatida yomon bo'lishi yoki ijrochi sifatida yaxshi, dirijor sifatida yomon bo'lishi mumkin. Ma'ruza yaxshi tugallansa, u tinglovchilar xotirasida yaxshi saqlanib qoladi. Ma'ruzani nima bilan tugallash kerak? Ko'pincha yig'ilishlarda notiq o'z nutqini sira tugallay olmaydi, tugallamoqchi bo'ladi, lekin ilojini qilolmaydi. Shu sababli nutqning oxirini avvalroq tayyorlab qo'yish zarur.

6. Vaqtni suiiste'mol qilmaslik. Vaqt hamma masalalarda, shu jumladan notqlik mahorati masalasida ham jiddiy, ammo adolatli hakamdir. Qisqacha ma'ruza notiq muvaffaqiyatining qisqa yo'lidir. A.P.Chexov qisqacha bayon – iste'dod belg'isidir, degan edi. Ma'ruzani cho'zgan sari notiq tinglovchilar g'ashiga tegaveradi. Shu sababli har bir ma'ruzada belgilangan vaqtga rioya qilish muhimdir. Belgilangan vaqt esa ikki xil bo'ladi: tashqi belgilangan vaqt – notiqqa oldindan aytilgan vaqt chegarasi, ichki belgilangan vaqt esa notiqning vijdoni va tinglovchining sabr-toqatidir.

Yaxshi nutqni yaxshi hit (mashhur bo'lgan qo'shiq) bilan solishtirish mumkin. Yangi chiqqan qo'shiq ommabop va muvaffaqiyatli bo'lishi uchun nima kerak? Uch narsaning kombinatsiyasi talab qilinadi: yoqimli ohang, yaxshi matn va mohir ijrochi. To'g'rimi?

Muvaffaqiyatli notqlik uch qismga asoslanadi:

1. Notiqning ovozi.
2. Yaxshi matn.
3. Tinglovchilar bilan o'zaro munosabatlar (aloqa).

Qo'shiqdan ohang yoki so'zlarni olib tashlang, shunda qo'shiq bo'lmaydi. Amalda ham shunday. Notiqning ovozi, faktlarni taqdim etishi va tinglovchilarning fikr-mulohazalarini eshitish qobiliyati muvaffaqiyatni belgilaydi. Yaxshi notiq – bu nutqning mavzusini mahorat bilan taqdim etadigan va ochib beradigan kishidir.

U fikrlarini erkin bayon qiladi va mohirlik bilan tinglovchilar e'tiborini o'ziga jalb qiladi.

Yosh liderlarimiz yaxshi notiq bo'lish yo'lidagi intilishlarini tez va muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishlari uchun quyidagi to'rtta qoidaga amal qilishlari lozim:

1. Liderlarimiz o'z nutqini maqsadga erishish uchun kuchli va mustahkam sababga ega bo'lgan holda boshlashlari lozim.
2. Nima demoqchi ekanliklarini qat'iy ravishda aniqlab olishlari lozim.
3. Ishonchni namoyon etish. Ya'ni, qaddi-qomatni tik tutish, tinglovchilar ko'ziga tik qarash, go'yoki ular (tinglovchilar) sizdan (so'zlovchidan) qarzdorday, ishonch bilan bemalol so'zlash.
4. Amalda qo'llash. So'zga chiqishda o'ziga nisbatan ishonchni mustahkamlashning bexato usuli, bu – iloji boricha ko'proq gapirishdir.

Qo'rquv o'ziga nisbatan ishonchning kamligidan ro'y beradi.

O'zingiz biladigan bitta mavzuni oling. Uch daqiqalik ma'ruza tayyorlang. So'ng, agar iloji bo'lsa mo'ljallangan odamlar huzurida yoki do'stlaringiz oldida so'zga chiqing.

Xulosa qilib aytganda, omma oldida so'zlashdan qo'rqish, jur'atlilik va ishonchning nutqdagi ahamiyatini quyidagicha talqin etish mumkin:

– notiq o'z maqsadida erishish uchun quyidagi omillarga e'tibor qaratishi lozim. Birinchi omil shundan iboratki, notiq o'z nutqini qat'iyatli va ta'sirchan boshlashi lozim. Ikkinchi omil notiq nutqi oldindan puxta o'ylangan, rejalashtirilgan bo'lishi zarur. Uchinchi omil notiq o'ziga ishonishi, dadil bo'lishi kerak, ya'ni tetiklik va jur'atlilik alohida ahamiyatga ega. Tinglovchilarning ko'ziga tik qarab ishonch bilan gapirish lozim, asabiylashmaslik va ortiqcha hayajonlanmaslik kerak. To'rtinchi omil tinimsiz mashq qilishdir. Qo'rquv va ishonchsizlik tajribaning, malakaning kamligidan kelib chiqadi. Tinimsiz mashq qilish va qaytarish natijasida tajriba va mahorat paydo bo'ladi.

Lider shaxsida nutqning muvaffaqiyatli chiqish shartlari, notiqning psixologik tasvirini quyidagicha talqin etish mumkin:

– notiqning libosi, o'tirishi, yurishi, xatti-harakati, nutq jarayonida muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir xatti-harakat tinglovchilarning ko'z o'ngida bo'ladi vca o'z ta'sirini ko'rsatadi. Notiq tana harakatlarining mosligiga, to'g'riligiga alohida e'tibor berishi kerak. Notiq o'z fikrini yurakdan chiqarib tinglovchilarga yetkazsa, uning qo'li va oyog'i bilan bog'liq beo'xshov harakatlar sezilmaydi. Yaxshilab tayyorlangan nutq nutqning 90% muvaffaqiyatini yuzaga keltiradi. Shu sababli notiq mavzu to'g'risida yetarlicha g'oyaga, ma'lumotga ega bo'lsa o'z niyatiga yetadi. Ba'zilar tayyorgarlikka kam vaqt ajratishadi va noqulay ahvolga tushib qolishadi;

– har bir notiq o‘ziga xos uslubga, bilimga va xislatga ega bo‘lgani uchun uning nutqi o‘zgalarnikidan farq qiladi. Shu sababli taniqli notiqning nutqiga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish va takrorlash yaxshi samara bermaydi. Shunga qaramasdan, ulardan foydalangan uslub va imkoniyatlardan ongli hamda ijodiy foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bekmirzayev N. NOTIQLIK SAN'ATI ASOSLARI O'quv qo'llanma, Toshkent . "Yangi nashr" .2008.
2. Inomxo'jaev S. Notiqlik san'ati asoslar. -T.:1982.
3. Jumaniyozov R., Salimov S. G'oyaviy tarbiyada notiqlik san'ati. Toshkent, 2002.
4. Omonov B. Siyosiy yetakchining notiqlik mahorati. -T.: "O'zbekiston", 2000.
5. Raximova D., Bekmurodov M. Liderlik va tashkilot madaniyati. -T.: "Akademiya", 2006

Internet manbalari:

1. www.fikr.uz
2. uz.m.wikipedia.org
3. www.orator.ru